QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI TÓRTKÚL RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI TO‘RTKO‘L TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2024-yil 25-noyabr | 418-13-190-Q/24 | To‘rtko‘l tuman hokimligi

To‘rtko‘l tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida 2025-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-moddasi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 43-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va “O‘zbekiston Respublikasi bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari ijrosini ta’minlash maqsadida berilgan takliflarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-moddasiga asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan va ish topishda qiynalayotgan hamda mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifalari uchun ish o‘rinlarini band qilishi lozim bo‘lgan tumandagi korxona, tashkilot va muassasalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tumandagi mazkur korxonalar, tashkilotlar va muassasalar quyidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan hamda mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifalari uchun 2025-yilda 25 ta korxona va tashkilotlarda 90 ta ish o‘rinlarini band qilib qo‘yishni ta’minlasin:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 32,2 % (29 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlarga, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 28,9% (26 kishi);

safarbarlik chaqiruv zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 11,1% (10 kishi);

nogironlar uchun 5,6% (5 kishi);

mehnat organida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan, pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 5,6% (5 kishi);

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun 13,3 % (12 kishi);

odam savdosi qurbonlari uchun 1,1 % (1 kishi); oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun 2,2 % (2 kishi).

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan va ish topishda qiynalayotgan hamda mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2024-yil yakunlashidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025-yilning 1 aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan va ish topishda qiynalayotgan hamda mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu ish o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larining bir qismini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

5. Mazkur qaror bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan va ish topishda qiynalayotgan hamda mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari band qilinmasdan tuman hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularning ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 50-moddasiga muvofiq tashkilotlarning mansabdor shaxslariga bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravaridan 5 barobarigacha jarima jazosi belgilanadi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3163, 2019-yil 31-may)ga asosan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan ish beruvchilarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash uchun subsidiyalar ajratilishi belgilansin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (T.Ashirbekov) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

8. Tuman hokimining 2023-yil 15-dekabrdagi “To‘rtko‘l tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 237-13-190-Q/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Xudaynazarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **R.Shamuratov**

To‘rtko‘l tuman hokimining
2024-yil 25-noyabrdagi
418-13-190-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2025-yil 1-yanvardan boshlab ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan fuqarolar uchun korxona va tashkilotlarda ishlovchilarga nisbatan belgilangan ish o‘rinlari tashkil qilish to‘g‘risida

REJA

T/R	Korxona va tashkilotlar nomi	Korxona INN raqami	Kvota ish o‘rinlarini yaratadigan korxonalarda ishlovchilar soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan								
					Yolg‘iz ota-onalar hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan ko‘p bolali ota-onalar uchun ish o‘rinlari	Ta’lim muassasalarni tugatgan yoshlar uchun	Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar safarlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatil	Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlar soni	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolganlar	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlar soni muddatini	Odam savdosidan jabrlanganlar uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun

					soni		**ganlar uchun ish o‘rinlar soni**			**o‘tab qaytganlar uchun**				
1	To'rtko'l tumani 1-son kasb-hunar maktabi	200370864	**126**	2	1	1								
2	To'rtko'l tumani 2-son kasb-hunar maktabi	203310825	**114**	2	1	1								
3	To'rtko'l tumani Madaniyat bo'limi	200392458	**102**	2	1	1								
4	To'rtko'l tumani Sport	207125878	**64**	2	1	1								

	maktabi												
5	6-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	206874145	**96**	2	1	1							
6	9-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	206874192	**53**	2	1	1							
7	11-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	206882175	**100**	2	1	1							
8	12-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	206897307	**74**	2	1	1							
9	13-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	206874121	**82**	2	1	1							
10	17-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	206892528	**63**	2	1	1							
11	21-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	206885528	**85**	2	1	1							
12	63-son umumiy o'rta ta'lim	206889538	**53**	2	1	1							

	maktabi												
13	68-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	306657712	**55**	2	1	1							
14	8-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	200393456	**70**	2	1	1							
15	30-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	207305946	**57**	2	1	1							
16	To'rtko'l Davlat o'rmon xo'jaligi	200392125	**62**	3						2	1		
17	To'rtko'l tumani Tibbiyot birlashmasi	200392480	**2003**	12	3	3	2	2	2				
18	To'rtko'l tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	204633184	**208**	10			3	1		6			
19	"Best cotton tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyati	311182987	**576**	7	2	2	2			1			

20	"Don To'rtko'l" mas`uliyati cheklangan jamiyati	310927153	**41**	2	1				1				
21	To'rtko'l “Toza hudud klaster” mas'uliyati cheklangan jamiyati	307903064	**78**	5			2			3			
22	“To'rtko'l ulgurji oziq-ovqat” mas'uliyati cheklangan jamiyati	300340985	**26**	2	1	1							
23	"To'rtko'l shisha idishlari" mas'uliyati cheklangan jamiyati	306851091	**234**	5	2	2	1						
24	"To'rtko'l silkworm pro" mas'uliyati cheklangan jamiyati	306081061	**2994**	11	3	2		2	2				2
25	" To'rtko'l Xayriyat qurilish" mas'uliyati cheklangan	302483600	**35**	3	2	1							

	jamiyati												
Jami		**x**	**7451**	**90**	**29**	**26**	**10**	**5**	**5**	**12**	**1**	**0**	**2**